



ISSN 2181-1571



FERGANA STATE
UNIVERSITY

FarDU.
ILMIY XABARLAR

**IJTIMOYIY GUMANITAR
FANLAR**

**Scientific journal
of the
Fergana State
University**



6/2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)	G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)	LEEDONG WOOK (Janubiy Koreya)	BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	A'ZAMOV A. (O'zbekiston)	KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)	CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)	RAKETIN O. (Rossiya)	TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)
AXTARIYEVA R. (Rossiya)		TURAYEV A. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

IJTIMOYIY GUMANITAR FANLARI BO'YICHA

EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d., prof.	AHRORQULOV A. (O'zbekiston)	FarDU, yu.f.f.d. (PhD)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d., prof.	SIDDIQOV I. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d., dots.
TOJIBOYEVA H. (O'zbekiston)	O'z Res FA Pedagogika ITI p.f.d. (Dsc)	YULDASHEV S. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.f.d. (PhD)
O'RINOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.n., dots.	G'ANIYEV B. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d., dots.
ABBASOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.f.d. (PhD)	QOSIMOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d., prof.
DAVLYATOVA G. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.n.	MAMAJONOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d., prof.
G'OFUROV A. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d., dots.	ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d., prof.
G'OFUROV A. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.d., prof.	SHUKUROV R. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n., dots.
XONKELDIYEVA G. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.d., prof.	ZOKIROV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n., prof.
HOLMATOV B. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.n.	MO'MINOV S. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d., prof.
XAKIMOV N. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d., dots.	YULDASHEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d.	MAMAJONOV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.f.d., dots.
USMONOV B. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d. (DSc)	KAXAROVA M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n., dots.
MAXMUDOV O. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d., dots	ISOMIDDINOV F. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.
QAHHOROVA M. (O'zbekiston)	Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d., prof.	SABIRDINOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d., prof.
QAMBAROV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d., prof.	RAHIMOV Z. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d., dots
MAMATOV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d. (PhD), prof.	MIRZAYEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.f.d. (PhD)

Bo'lim boshlig'i: Zokirov I.I., b.f.d., prof.

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rinboyev I.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Journal.fdu.uz

B.Sh.Shermuhhammadov, D.R.Murodova

Bo'lajak o'qituvchilarda "Tanqidiy tafakkur" tushunchasining metodologik asoslari
va o'ziga xos xususiyatlari..... 8

T.A.Egamberdiyeva, J.A.Qurbonov

Bo'lajak pedagoglarda intellektual madaniyatni rivojlantirishning integrativ ta'lim texnologiyalari... 12

S.Mannapov

Uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimida musiqiy meros omili va imkoniyatlari..... 17

A.Abdullayev, J.X Abdullayev

Kichik maktab yoshidagilarni o'sishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi ayrim omillar 21

J.G'.Obidov

Texnika oliy o'quv yurtlarida o'quv materiallarini imitatsion-variantlik asosida o'qitishni
takomillashtirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari 25

A.T.Xasanov

Harbiy ta'lim bo'yicha bo'lg'usi mutaxassislarni kasbiy-amaliy jismoniy tayyorlashning
dolzarb masalalari..... 31

X.X.Abdurahmov

Iqtidorli o'quvchi yoshlarni yengil atletika turlariga saralash texnologiyasi 37

R.M.Ubaydullayev

Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish tuzilmasi
va komponentlari..... 42

A.N.Qosimov

O'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirish samaradorligi..... 49

D.R.Murodova, H.M.Ashurova

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida interfaol metodlarni rivojlantirish..... 55

A.I.Tuychiyev

Jismoniy mashqlar bilan o'quvchilarni mustaqil shug'ullanish malakalarini shakllantirish..... 61

S.T.Xakimov

Chidamlilik jismoniy sifatlarini rivojlantirishda maxsus aerobik mashqlar qo'llash samaradorligi 65

O.M.Karimov

Bo'lajak pedagoglarning g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish metodlari 69

D.M.Redjabova

O'zbekistonda boshqaruv kadrlarini tayyorlashda xotin-qizlarning faoliyatiga
yangicha yondashuvlar 72

B.X.Baydjanov

Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish – zararli axborotlar tahdididan
himoyalaniş omili sifatida 76

Ш.В.Джалалов

Влияние дифференцированного подхода на формирование здорового образа
жизни у школьников 81

M.A.Xonbabayeva

Logopedik ritmika fani asosida bo'lajak logopedning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning
pedagogik imkoniyatlari..... 85

Ш.В.Джалалов

Физическая подготовленность 11-12 летних девочек общеобразовательных школ
Ферганской области 91

A.B.Mirzayev

Chet tilni zamonaviy o'qitish tizimida sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari 95

G.K.Yakubova

O'quvchi-yoshlar qomatining konstitutsion tiplari va ularni antropometrik bahollash usullari 99

O.Q.Xasanova

Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini
takomillashtirish modeli 104

A.Sharafiddinov	
Farg'ona viloyatini Rossiya imperiyasining xom ashyo bazasiga aylantirilishi (XIX asrning ikkinchi yarmi).....	203
M.M.Temirova	
O'zbekistonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlari	208
Q.Sulaymonov	
Iqtisodiyotni globallashtirishda informatsiyaning o'rni	213
X.E.Xodjamberdiyev	
Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirilishi va uning aholi turmush tarziga ta'siri.....	216
A.A.Xakimov, O.Sh.Ubaydullayev	
Farg'ona vodiysi shaharsozlik madaniyatining xususiyatlari va rivojlanishi (Sho'rabashot dehqonchilik madaniyati misolida).....	222
M.M.Abdullayeva	
Zamonaviy o'zbeklar shaxsiyatida gender stereotiplarining namoyon bo'lish darajasi (Namangan viloyati misolida)	226
F.Abdurasulova	
Buxoro amirligida diniy ta'limning Amir Shohmurod va Amir Haydar hukumronligi davrida rivojlanishi	232
A.A.Aloxunov	
Yangilangan saylov tizimi – yurt taraqqiyotining kafolati	236
M.B.Siddiqov	
Ikkinchi jahon urushi yillarida pensiya tizimi	241
G.A.Abdug'aniyeva	
Harbiy xizmatga chaqiruvlarda tibbiy ko'rikdan o'tkazish masalasi	247
N.V.Karimova	
Farg'ona vodiysi antik davr shaharlari tarixiy–topografiyasining o'rganilishi.....	252

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov	
Xudoyberdi To'xtaboyevning qahramon yaratish mahorati	257
G.V.Abdullayeva	
Bolalar she'riyatida lirik qahramon masalasi.....	260
S.Q.Mamatova	
Nuh Alayhissalom obrazining tarixiy asoslari.....	267
N.Y.O'roqova	
Yangi o'zbek she'riyatida o'simlik obrazlari talqini	271
D.A.Qahharova	
Lirikada ko'ngil timsolining genezisi va tarixiy takomili.....	280
S.A.Xaqnazarova	
An'ana va novatorlik: nazariy asos, takomil va turlar	287
M.Islomova	
Hayot haqiqati va badiiy tafakkur	290
A.A.Qayumov, D.G'.Gafurova	
Badiiy detalning poetik vazifasi (X.Do'stmuhammadning "Jodi" asari misolida)	294
Y.B.Eshmatova	
Turk hikoyachiligida an'ana va yangilanishlar sintezi.....	299
Д. О.Турдалиев	
Интеграция устного народного творчества в сказках а.с. пушкина: фольклорные корни и литературные трансформации	303
F.B.Sultonqulova	
Usmon Azim she'riyatida lirik qahramon tabiati	306
G.A.Jurayeva	
Bolalar she'riyatida shakliy -mazmuniy yangilanish hamda izlanishlar.....	310



UO'K: 1751.82.02

YANGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA O'SIMLIK OBRAZLARI TALQINI

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗОВ РАСТЕНИЙ В НОВОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

INTERPRETATION OF PLANT IMAGES IN NEW UZBEK POETRY

O'roqova Nafosat Yoriyevna 

Buxoro davlat universiteti dotsenti, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Maqolada san'atning spetsifik xususiyati – badiiy obrazlar tahlil qilingan. Bunda, xususan, o'simlik obrazlariga asosiy e'tibor qaratilgan. Lirik turda olamning badiiy manzarasini ifodalash obrazning turli ko'rinishlari vositasida amalga oshiriladi. Shulardan eng faol qo'llanib kelingan obrazlar – bu flora olamiga tegishlidir. Badiiy ijodda floristik obrazlar genezisi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Inson jamiyat, tabiat va koinot bilan bir butunlikda mavjuddir. Shu nuqtayi nazardan uni tabiat va borliq obyektlari, hodisalari ichida yondosh holatda tasvirlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, yangi o'zbek she'riyatida ham olamning badiiy manzarasini floristik obrazlar orqali ifodalashning o'ziga xos poetikasi shakllanganini ta'kidlash zarur. Mazkur tadqiqotning maqsadi shu tamoyillarga xos xususiyatlarni aniqlashdan iboratdir. Maqolada zamonaviy lirikada o'simlik obrazining badiiyati va poetikasi masalasini tadqiq qilishda qiyosiy tarixiy, qiyosiy-tipologik, lingvistik, analitik tahlil usullaridan foydalanilgan. Natijada, yangi o'zbek she'riyatida qo'llangan o'simlik obrazlarining badiiy ahamiyati yoritilgan. Qator ijodkorlarning she'rlari misolida ular ifodalagan ramziy-timsoliy mazmun-mohiyatga diqqat qaratilgan. Binobarin, floristik olamni anglash tarzi o'zgarganligi, uni badiiy ifodalashda o'simlik obrazlaridan ham faol foydalanish yo'liga o'tilganligi asoslangan.

Аннотация

В статье анализируется специфическая особенность искусства – художественные образы. При этом, в частности, основное внимание уделяется изображениям растений. В лирической форме выражение художественного картина мира осуществляется посредством разных форм изображения. Среди них наиболее активно используемые изображения относятся к миру флоры. Зарождение флористических образов в художественном творчестве уходит в глубокую древность. Человек существует в единстве с обществом, природой и Вселенной. С этой точки зрения его уместно описывать в состоянии сопоставления предметов и явлений природы и существования. Ведь необходимо подчеркнуть, что в новой узбекской поэзии сформировалась уникальная поэтика выражения художественного картина мира через флористические образы. Целью данного исследования является определение характеристик этих принципов. В статье использованы сравнительно-исторический, сравнительно-типологический, лингвистический и аналитический методы анализа при исследовании вопроса художественности и поэтики образа растений в современной лирике. В результате подчеркивается художественная значимость образов растений, используемых в новой узбекской поэзии. На примере стихотворений ряда художников акцентируется внимание на выраженном ими символическом содержании. Следовательно, в его основе лежит то, что изменился способ понимания флористического мира, а также способ активного использования образов растений в его художественном выражении.

Abstract

The article analyzes the specific feature of art - artistic images. In this, in particular, the main attention is paid to the images of plants. In the lyrical form, the expression of the artistic view of the world is carried out by means of different forms of the image. Among them, the most actively used images belong to the world of flora. The genesis of floristic images in artistic creation goes back to ancient times. Man exists in unity with society, nature and universe. From this point of view, it is appropriate to describe it in a state of juxtaposition among the objects and phenomena of nature and existence. After all, it is necessary to emphasize that a unique poetics of expressing the artistic view of the world through floristic images has been formed in the new Uzbek poetry. The purpose of this study is to determine the characteristics of these principles. In the article, comparative-historical, comparative-typological, linguistic, and analytical methods of analysis were used in researching the issue of artistry and poetics of the image of plants in modern lyrics. As a result, the artistic significance of plant images used in new Uzbek poetry is highlighted. In the example of the poems of a number of artists, attention is focused on the symbolic and symbolic content expressed by them. Consequently, it is based on the fact that the way of understanding the floristic world has changed, and the way of active use of plant images in its artistic expression is also based.

Kalit so'zlar: badiiy adabiyot, yangi o'zbek she'riyati, flora olami, obraz, o'simlik obrazlari, ramz, peyzaj lirikasi

Ключевые слова: художественная литература, новая узбекская поэзия, мир флоры, образ, растительные образы, символ, пейзажная лирика.

Key words: fiction, new Uzbek poetry, world of flora, image, plant images, symbol, landscape lyrics.

KIRISH

Yangi o'zbek she'riyatida olamning badiiy manzarasini o'simlik obrazlari vositasida tasvirlash yetakchi xususiyat kasb etgan. Ular orqali lirik qahramon ruhiy olami, xarakter-xususiyatlari, orzu-armonlari, fikr-kechinmalari ramziy-timsoliy tarzda ifoda etilgan. Maqolada she'riyatdagi mazkur jarayonni ikki bosqichga bo'lib o'rganishni maqsad qildik: 1. Mustamlaka (1900-1990) yillari o'zbek lirikasida o'simlik obrazlari poetikasi. 2. Istiqldan keyingi (1991) yillar o'zbek she'riyatida o'simlik obrazlar talqini. Mumtoz she'riyatimizda an'anaviy tarzda bir xil ma'no ifodalagan bir qancha o'simlik obrazlari mustamlaka davri adabiyotida yangi ohang va mazmun kasb etdi. Ular mumtoz lirikada gavdalandirgan mazmun-mohiyat o'rnini endi hurlik, ozodlik tushunchalari, ramziy ifodalari egalladi. Bunday o'rin almashish mustaqillik davri adabiyotiga qadar davom etdi. Yangi o'zbek she'riyatida o'simlik obrazlari o'rnini aniqlash, ular ifodalagan ma'no qirralarini farqlash, o'simlik obrazlari badiiyati va poetikasiga xos umumiy va xususiy jihatlarni alohida tadqiq qilish, mavzuning yoritilishida bosh bo'g'in sifatida xizmat qiluvchi she'riy misollarni tanlash kabi vazifalar tadqiqotimizning ilmiy-nazariy asoslanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqolada tilga olingan "Olamning badiiy manzarasi" termini o'zbek adabiyotshunosligida yangi ilmiy atama hisoblanadi. Chunonchi, R.X.Shirinova [16], D.K.Baxronova [1]larning tadqiqotlari bu mavzuga yaqin, ammo ularda olamning badiiy manzarasi haqida biror fikr uchramaydi. Bu yo'nalishda rus, tatar adabiyotshunosligi, tilshunosligi, madaniyatshunosligi hamda falsafa sohasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masalaga she'riyat nuqtai nazaridan yondashgan K.A.Ojereyev K.S.Aksakov lirikasi misolida quyidagicha munosabat bildiradi: "K.S.Aksakovning dastlabki falsafiy she'riyatining motivli-obrazli dunyosi yer va osmon, individuallik va samoviylik birligi bilan ajralib turadi. She'riyatda «sintez»dan foydalanish slavyanofilga turli she'riy va madaniy an'analarni (slavyan, pravoslav, g'arbiy Yevropa, Sharq va boshqalar), falsafiy toifalarni organik ravishda birlashtirishga imkon beradi. K.S.Aksakov she'riy dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlari universallik, dialektiklik, proteizm va kosmizmga intilishda namoyon bo'ladi" [7]. Demak, K.C.Aksakov she'riyatining uslubiy o'ziga xosligi unda zamin va zamon muammolarining falsafiy idrok etilishi, universallik, dialektizm, proteizm, kosmizmga intilishida yuzaga kelganligi olamning badiiy manzarasi tushunchasida mujassam topgan.

G.M.Guseynova olamning badiiy manzarasini yaratuvchilaridan yana biri sifatida metaforani ko'rsatadi, uning olam badiiy manzarasida estetik vazifa bajarishini ta'kidlab yozadi: "Metafora badiiy adabiyotda estetik vazifa bajaradi, shu orqali uning badiiy ta'sirchanlik kuchi oshadi" [3].

Demak, olamning badiiy manzarasini floristik obrazlar orqali ifodalash poetikasi zamonaviy o'zbek adabiyoti davriga qadar ham chuqur o'rganilmagan. Maqola va ayrim tadqiqotlar doirasida ifodalangan fikr-mulohazalar mazkur mavzuning to'liq yoritilmaganligini tasdiqlaydi. Shu jihatdan ushbu kichik tadqiqotimiz dolzarb ahamiyatga egadir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hassos shoir Oybek she'riyati o'zining sodda tili, ravon uslubi, nozik ifodalari, rang-barang tasvir yo'nalishlari bilan alohida ajralib turadi. Uning "Na'matak" she'ri tog'da o'sadigan ko'p yillik o'simlik tasviriga bag'ishlangan. Na'matak tabobatda juda ko'p kasalliklarga qarshi foydalanib kelinayotgan o'simliklardan biri sanaladi.

Nafis chayqaladi bir tup na'matak

Yuksakda, shamolning belanchagida,

Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,

Viqor-la o'shshaygan qoya labida [8, 30].

Bunda na'matakning bahor faslida gullagan holati aks ettirilgan. Qoya labidan joy olgan mazkur o'simlik o'zining chiroyi, tarovati bilan lirik qahramonni – shoirni maftun etgan. Uning quyoshga tutib turgan bir savat guli – o'zining oppoq gullaridir. "Na'matak" sof lirika namunasi sanaladi. Ba'zi adabiyotshunoslar esa unda ijtimoiy pafos yuqoriligini ta'kidlaydilar. Ya'ni na'matakning quyoshga gul tutib xursand bo'lishi, vahshiy qoyalarga fusun berishi ortida ezguliklarga tashna inson obrazini ko'radilar. Shu jihat olinsa, na'matakni ramziy obraz deyish mumkin.

Shoir A.Oripovning XX asr adabiyotida badiiy hodisa bo'lgan she'rlaridan biri "Bahor"da bir qator o'simlik obrazlari yaratilganligiga guvoh bo'lish mumkin:

Tog'lar ham yuk tashlab ko'tardi kiftin,

ADABIYOTSHUNOSLIK

Bezavol maysa ham silkitadi bosh.
 Tarnovlar bo'g'zida lola ham ko'rkam,
 Terak uchlarida izg'ir mavjudot.
 Hattoki tuyg'usiz, chirik xazon ham
 Yashil po'panakdan bog'labdi qanot... [11, 122]

Dastlabki banddagi bezavol maysa bahor timsolini ifodalab keladi. Keyingi banddagi lola esa bahor tashrifiga ishora beradi. Bunda chirik xazon obrazi ham bor. Ma'lumki, ko'klam kelishi bilan borliq yashillik bilan burkanadi. Hatto xazonlar ostidan ham yashillik yuzaga chiqadi. Shoir shuni timsol vositasida "chirik xazon ham yashil po'panakdan bog'labdi qanot", deydi. She'rning keyingi bandlarida mahzunlik ruhi yana ham yuqorilab boradi.

Shoirning "Bahor nashidas" she'rida ham maysa, gul, chechak obrazlari bo'y ko'rsatadi. Ular bahorning ilk darakchilari sifatida ko'rsatilgan. "Tolbargak" – bahor kelishi bilan suluv qizlar tomonidan boshga taqilgan. U tol daraxtining barglarini birlashtirish yo'li bilan yasaladi. Shu orqali ular o'zlariga zeb berganlar.

Yashillandi oppoq tog'lar purviqor,
 Adirlarda chopar guvlab bo'z anhor,
 Bosh ko'tardi nimdosh maysa, gul-chechak,
 Suluvlarning sochlarida tolbargak... [11, 202]

Darhaqiqat, bahor tashrifini endi bosh ko'targan maysa, g'uncha tuggan gul orqali his etish mumkin. Maysa gul-chechak bilan sinonim tarzida keladi. Shoir bahor nashidasini mana shu ikki obrazga singdirgan.

Keldim qoshingizga chopib, entikib,
 Maysaga burkangan tog' etaklari.
 Uch oy yo'lingizda yotdim ko'z tikib,
 Ey, bahor bekasi – may chechaklari... [11, 202]

She'rning keyingi bandida chechak, maysa obrazlari ham yashillikni ifodalab keladi. Shu o'rinda shoir betakror istiora qiladi: chechaklarni bahor bekasi, deydi.

Yangi o'zbek she'riyatida Omon Matjonning to'laligicha flora olami aks etgan bir she'ri alohida o'rin tutadi. Unda to'rt fasl davomida atrofimizda uni-o'suvchi tabiatning jilvakor parchalarini ko'rishimiz mumkin. Shoir talqiniga ko'ra, ularni his qilib, bir safda yashash o'zi baxt. U tabiatni "aholisi nihoyat zich yashil saltanat" deya ta'riflaydi: yalpiz, ang'iz, ismalog'-u binafsha, bug'doy kabilarni tilga olib, ularning oftobda mavjlanishini dengizlarga mengzaydi.

Men – maysaman, qitiqlayman tovonlarini
 bolakaylar yelkamda shod o'ynagan damlar.
 Ha, giyohman – poyandozman barra va yumshoq,
 tuprog'imga og'ir botmasin deb qadamlar... [9, 82]

Bir o'rinda shoir o'zini maysaga qiyoslaydi: o'zini bolakaylar uning ustida, musaffo osmon ostida o'ynab yugurganlarida tovonlarini qitiqlab, quvonch ulashuvchi sifatida ko'radi. Boshqa bir o'rinda esa o'zini giyoh bilan parallel qo'yib, yurt himoyasiga tayyor posbondek his uyg'otadi. Bunda lirik qahramonning Vatanga, uning har bir zarrasiga bo'lgan cheksiz muhabbatini tuyish mumkin. Omon Matjon bu sevgini baralla aytmaydi, balki so'zlar orqali anglatadi. Bunda shoirning badiiy mahorati yorqin ko'zga tashlanadi.

Usmon Azimning quyidagi she'rida ona yurt sog'inchi aks etgan:

Maysalar, tovonim sizni sog'inar,
 Tog'lar, viqoringiz qalbimda mangu.
 Qaydadir qo'zichoq bo'zlar, oh urar,
 Qirlarda adashgan sog'inchimmi u? [13, 62]

Maysa bunda Vatan timsolini ifodalab kelgan. O. Matjonning lirik qahramoni maysaga aylanib, bolalarning tovonlarini qitiqlasa, U. Azimda maysalarni sog'ingan tovonlar oh chekadi. Odatda, maysalar suvga to'yingan, yumshoq yerlarda yoki tog' yonbag'irlarida unib-o'sadi. Ularning doimiy yashil tusda bo'lishi shodon bolalikni yodga soladi. Ona quchog'ida, yurt bag'rida kechgan yoshlik gashti hamisha Vatan sog'inchi bilan yonma-yon turadi. Keyingi misralarda mana shu sog'inch qo'zichoqning bo'zlariga, ohiga tenglashtirilgan. Shoir tanosub badiiy san'atini qo'llash orqali poetik mazmunni to'laligicha yetkazib bera olgan.

Halima Xudoyberdiyeva o'zining betakror, ta'sirchan, yangicha ruh va kayfiyatda yozilgan she'rlari bilan muxlislar qalbidan joy egallagan. Ma'lumki, she'r – lirik qahramon ruhiyati, uning ichki kechinmalari ifodachisidir. Shoiraning lirik qahramoni ham o'zining tuyg'ularini oshkor etishdan tortinmaydi. Uni o'ta nozik did, sevgiga yo'g'rilgan yuqori pafosda yetkazib beradi. "Yubormayman..." nomli she'r shu jihatlarga ko'ra diqqatga sazovordir:

Maysalandim, oyog'ingni bos,
lahzani yillayman, ushlayman.
Yoyilaman bo'lib poyondoz
seni sevib, seni xushlayman [15, 46].

Lirik qahramonning "maysalanishi" uning hamisha yashil rangda bo'lishi – o'zida yoshlik tarovati, go'zallikni saqlab qolishini ifodalaydi. Bu so'z ortida yana yumshoqlik, muloyimlik hissi, halimlik xususiyati yashirin. Sevgan insonning qalbi o'z-o'zidan muloyimlashib qoladi, bu sir emas. Demak, shoira birgina "maysalandim" so'zi orqali muhabbatga oshno bo'lgan qalbiga ishora bermoqda. Ayni choqda yangi so'z – fe'l ham yasalgan. Muhabbat vaqtni hisobga olmaydi, sevgan inson uchun vatq to'xtab qolgandek tuyuladi. Aslida esa, sevgining har lahzasi yillarga tatiydi. Lirik qahramonning "poyondoz bo'lib yoyilishi" ortida sevgisini tan olgani, ko'ngildoshi uchun har narsaga tayyorligi g'oyasi turadi.

Ijodkorning mahorati so'zni har yo'singa sola olishida ko'rinadi. Qachonki, so'z badiiy maqsadni ifodalashda shoirning "yo'rig'iga yo'rg'alasa", ana shundagina bu so'zning jilosi turfa ko'rinishda taraladi. H.Xudoyberdiyevaning "Haq deganni..." she'rida maysa obrazlantirilgan.

Garchand bosilgan maysaman, ko'kargayman,
bir ekan-ku, ming dardni ham ko'targayman...
Ko'karganlar, ko'karamiz, ko'kargaylar,
haq deganni haqning o'zi ko'taradi! [15, 114]

She'r tashxis, tanosub, tazod, irsoli masal singari badiiy san'atlar bilan ziynatlangan. "Ko'karganlar, ko'karamiz, ko'kargaylar" so'zlaridagi "k" tovushi alliteratsiyani hosil qilib, kuchli ta'kidni ifodalagan. Bu ta'kid ortida esa lirik qahramonning matonati, sabri, yashashga bo'lgan ishtiyoqi, hayotga muhabbati yashirinligini anglash qiyin kechmaydi. Lirik qahramonning o'zini bosilgan maysaga qiyoslashi unga nisbatan atrofda kuchli qarshiliklar bo'layotganini ifodalaydi. Zero, she'rda mana shu yovuz kuchlarga qarshi chiqishda lirik qahramonning shijoati tengsizligi seziladi. Bunda ezgulik va yovuzlik kurashi aks etgan deyish mumkin.

Ruju' mumtoz adabiyotda keng qo'llanib kelingan. Yangi o'zbek she'riyatida ham bu san'atning keng qo'llanishi o'sha an'analarning hamon davomiyligini tasdiqlaydi. Shoir E.Vohidov o'z g'azallarini ruju' bilan bezaganini kuzatamiz:

O'smali qosh dema, zumrad –
Naqsh etilgan sajdagoh,
Kam bukun mehrobga ixlos,
Lek bu ko'p muxlisli barg [2, 71].

She'riyatda oldingi misrada ifodalangan fikrdan, qo'llangan badiiy tasvir vositasidan qaytgandek yo'l tutib, keyingi misrada fikrni unga qaraganda kuchliroq ifodalash ruju' sanaladi. Shoir shu san'at orqali ma'shuqaning qoshi ta'rifini keltirmoqda. Ya'ni o'smali qosh dastlabki ifoda, undan kuchlisi "zumrad naqsh etilgan sajdagoh", deyapti shoir. Demak, zumrad – yashil rangli qimmatbaho tosh. O'smali qosh ham shu rangga monand bo'ladi. Shuning uchun yashillikni kuchaytirib, uni zumradga qiyoslamog'da. Bu bilan ham kifoyalanmasdan, bu barg – qoshning (ma'shuqaning) muxlisi ko'pligini ta'kidlayapti.

O'sma o'simligini qadimdan onalarimiz, buvilarimiz qosh, ko'zlarini chiroyli ko'k rangga bo'yash uchun hovlilarda o'stirishgan. Ilgari G'arbiy Yevropada bu o'simlik nil bo'yog'i olish uchun ekilgan ekan [18]. U nafaqat o'zbeklarning, balki barcha turkiy xalqlarning ayollari uchun milliy pardozi vositasi sanaladi. Buni M.Yusufning "Turkman qiz" she'ri misolida dalillash mumkin:

U elining urflarini qilmaydi xor,
Beshigi hech allasiga bo'lmaydi zor,
Qoshida momosi qo'ygan o'smasi bor,
Uzun ko'ylak turkman qizga uylanaman [5, 91].

ADABIYOTSHUNOSLIK

She'riy asarlarda lirik qahramon, uning his-tuyg'u va kechinmalari, maqsadi, orzu-armonlari bosh markazda turadi. Aksariyat hollarda, she'ning lirik qahramoni – shoirning o'zi – lirik "men" bo'ladi. Demak, unda aks etgan barcha tuyg'ular shoirning qalb prizmasidan o'tib, o'zini qayta namoyon qiladi. Yuqorida keltirilgan she'riy parchadan ko'rinadi, shoir o'z yurtining qizlaridan xafa. Ularning qadimiy an'ana va urf-odatlarimizni sekin-asta tark etayotganlari, o'zbek millatiga xos kiyinish madaniyatini unutayotganlari shoir qalbiga og'riq beradi. Arazlagan holda, turkman qizlarini maqtab, o'smali qoshlariga, uzun ko'ylaklariga urg'u beradi. Aslida, shoirning maqsadi boshqa millat qizlarini ulug'lab, o'zbek qizlarining g'ururiga tegish emas edi. Yillar o'tishi bilan jahon ommaviy madaniyatining ta'siri sezilayotgani, qizlarimizni uning domiga tushib qolishlaridan asrash kerakligini she'ning asosiy bo'g'ini sifatida qarasak, xato bo'lmas. Demak, mazkur o'rinda o'sma milliy koloritni ko'rsatuvchi vosita vazifasini bajargan.

M.Yusuf hamisha vatan ishq'i bilan kuyib-yongan. Yurtining har zarrasi – bog'lari-yu tog'larini, go'zal tabiatini muqaddas sanab, she'rlarining asosiy obyektiga aylantirgan. Shu bois M.Yusuf Vatan ramzi sanaladi. Uning nomi Vatan timsolini gavdalantiradi. Shoirning "Iqror" she'ri Vatanga qo'yilgan lirik haykaldir:

O, ota makonim,
Onajon o'lkam
O'zbekiston, jonim to'shay soyangga
Senday mehribon yo'q,
Seningdek ko'rkam,
Rimni alishmasman bedapoyangga [6, 55].

Darhaqiqat, she'rda Vatan obrazi to'laligicha ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Ota makon, ona o'lkada deya ulug'lanishi zamirida uning issiq bag'ri, qaynarbuloqdek tuganmas-bitmas mehriga ishora bor. Ma'lumki, Rim shahri jahonda eng taniqli tarixiy obyektlarga boy o'lkadir. Umrimizda bir bora bo'lsa-da, u yerga borib sayohat qilishni barchamiz orzu qilamiz. Shoir nazdida esa, Rim qancha afsonaviy yurt bo'lmasin, o'zining vatani undan aslo qolishmaydi. Lirik qahramondagi yurt sevgisi shu qadarki, hatto vatanining bedapoyasini ham Rim uchun alishmasligini izhor qiladi. O'zbekistonning betakror tabiati, ona quchog'idek issiq bag'ri shoirni hamisha o'ziga tortadi. Bedapoya bizga yoshligimizni eslatadi. Bada o'simligi hayvonlar uchun asosiy ozuqa manbasi hisoblanadi. Uning ichida o'ynoqlab kechgan bolaligimiz eng baxtli davrlarimizdan xotiradir. She'rda beda o'simligi va u yetishtiriladigan maydon – bedapoya Vatan obraziga parallel qo'yilgan.

M.Yusufning "Quyoshga qarab oqqan suv..." deya boshlanuvchi she'rda yalpizni obraz darajasiga ko'targan:

Men kimman? Bir yolg'izman,
Suv bo'yida bir yalpizman.
Oqizib ketmaysan nega,
Quyoshga qarab oqqan suv? [5, 90]

Yalpiz – o'zbek xonadonining ko'rki. Bu o'simlik ekilmaydigan o'zbek hovlisini topib bo'lmasa kerak. Nam yerlarda, ariq va daryo bo'ylarida o'sishi, bahorda yangi chiqqan barglari oshko'k sifatida ishlatilishi unga xos xususiyatlardandir. Bundan tashqari, oziq-ovqat sanoatida va tibbiyotda, moyidan esa parfyumeriyada keng foydalaniladi. M.Yusufning lirik qahramoni o'zini suv bo'yidagi maysaga mengzaydi. Suv – badiiy adabiyotda yorug'lik, ezgulik ramzidir. Uning suv bo'yida yashashi atrofida yaxshi insonlarning ham borligiga ishora qiladi. Lirik qahramon mana shunday ezguliklar ulashuvchi do'stga – quyoshga qarab oqqan suvga murojaat qiladi. O'zining ohlar to'la ko'ksidan shikoyat qiladi. Yalpiz singari bir hidlab, foydalanib, so'ngra keraksiz buyumdek chetga surib qo'rganlari unga alam qiladi. O'zini yolg'iz his qilib, do'stdan najot tilaydi: quyoshga qarab oqishni istaydi. Zero, lirik qahramonning ko'ngli ezgulikni qo'msab, hayotga muhabbat bilan yashashda davom etmoqchi.

M.Yusuf yalpizni yana boshqa bir ma'noda qo'llagan:

Zo'rlab qiz uzatmoq-ku, aslida
Mansab ilinjida yo orzu-havas.
Yalpizni yulqilab ariq bo'yidan
Toshloq yerga o'tkazmoqdan
bo'lak narsamas... [5, 169]

Demak, she'rdagi qiz yalpizga qiyoslangan. Unda ijtimoiy-maishiy masala bosh markazga chiqqan. Taassufki, hayotimizda bo'yga yetib-yetmay qizlarning roziligini ham olmasdan uzatish uchraydi. Bu harakatni boylik yoki orzu-havas maqsadida amalga oshirishadi. Jarayonda qizlarning his-tuyg'ulari inobatga olinmaydi. Mazkur holat go'yo ariq bo'yida o'suvchi yalpizni yulqilab olib, toshloq yerga o'tqazishga qiyoslangan. Ma'lumki, yalpiz suv bo'yidan chetlashtirilsa, qurib qoladi, yasholmaydi. Shoirning oldindan his qilish intuitsiyasi buni sezib, yosh qizlarning so'ng taqdiri yaxshilik bilan tugamasligidan ogohlantiradi. Yalpizning suv bo'yida o'sishi ayol-qizlarning hamisha parvarishga muhtojligi, mehr-oqibatga tashnaligini ifodalaydi. Uning yashil rangdaligi yoshga nisbat beradi. Xushbo'y ifori esa bo'yiga yetgan qiz ramzida kelgan.

M.Yusufning "Anjelika" she'ri shoir ijodiy merosida alohida o'ringa ega. Urush davrida mehmondo'st o'zbek xalqining qardosh xalq bolalarini o'z bag'riga olganligi sir emas. Anjelika shunday qizlar sirasiga kiradi. U – O'zbekistonga evakuatsiya qilingan belorus qizi. Mazkur she'rdagi ham yalpiz obrazi uchraydi. Shoir uni qizning ko'zlariga tenglashtiradi:

Qirg'in janglar borar edi Mag'ribda,
Qachon tugashini bilmaymiz.
Sinfimizga bir qiz kelib qo'shildi –
Sochi sunbul, ko'zlari yalpiz [5, 208].

Badiiy adabiyotda ranglarga katta ahamiyat beriladi. Chunki ular qadimdan turli maqsadlarga yo'naltirilgan. Yuqorida tahlil qilingan she'rdagi yalpizning yashilligi qizning yosh umriga ishora qilgan bo'lsa, "Anjelika" da esa qizning ko'ziga qiyoslangan. Belorus qizining ko'zlari yashil rangda tovlanadi. Yalpizning ham rangi shunday – yashil. Bundan tashqari, yalpiz barglarining shakliga e'tibor beradigan bo'lsak, inson ko'zlariga juda o'xshaydi. Demak, shoirning Anjelika ko'zlarini yalpizga qiyoslashida ilmiy asos yetarli.

Shavkat Rahmonning "Yoz ravishi" she'ri sof lirika namunasidir. Unda tabiatning go'zal manzarasi – poetik portreti chizilgan:

Yalpizlarning bo'yin ufurib
sho'x jilg'alar vodiya chopar.
Hovuzlarni yopinib olgan
qurvaqalar jimlikni qopar [14, 20].

So'lim yoz kechasi aks etgan she'rdagi yalpiz ona tabiatning jilokor bir parchasi sifatida ko'rinish beradi. U she'rdagi o'z ma'nosida qo'llangan bo'lib, hech qanday ramziy mazmun-mohiyat kasb etmagan. She'rdagi uning xushbo'y iforiga alohida diqqat qaratilgan. Yurtimizning fusunkor yoz kechasida jilg'alarning vodiya qarab chopishi tasviri ajib bir manzarani ko'z o'ngimizda gavdalantiradi. Badiiy tasvirda bu kabi betakror jonlantirishni qo'llash she'rga yuqori pafosni baxshida etgan.

A.Oripov lirikasida boshqa shoirlar ijodida kam uchraydigan "Ismaloq" nomli she'r mavjud:

Sen bahor ne'mati – oddiy bir ko'kat,
Poyang arg'uvoniy, barging yapaloq.
Quvondim, men seni ko'rsam har fursat,
Har ko'klam men seni kutdim, ismaloq [12, 110].

Misralarda shoir ismaloq tasvirini chizadi, uni bahor ne'mati deb ataydi. Ma'lumki, ismaloqning poyalari qizg'ish rangda bo'ladi. Shuni inobatga olib uni arg'uvoniy guliga qiyoslaydi. Bu o'simlik ko'ngillarga xursandchilik olib kiradi. Chunki ismaloq ko'klam tashrifini ham ifodalab keladi:

Sen bir gul emassan, nozlarga to'lib,
Ilhom bera olsang injiq ijodga.
Men uchun sen najot elchisi bo'lib,
U og'ir kunlarni tushirding yodga...
Ko'rganman qishlog'im ko'chalarida,
Ochlikdan gezarib ketganlarni men.
Ko'rganman uzun qish kechalarida,

Sizni armon bilan kutganlarni men [12, 110].

Haqiqatdan ham, ismaloq gul emas. Shu jihatdan u shoirga ilhom berolmaydi. Biroq shoir ismaloq vositasida xalqimizning yaqin o'tmishini, bir parcha urvoqqa zorlik his etgan ochlik damlarini yodga oladi. Shuning uchun ham uni najot elchisi deb ataydi. Chunki xalqimiz ovqatlanish uchun

ADABIYOTSHUNOSLIK

yegulik topmagan vaqtlarida ismaloq ularning jonlariga oro kirgan, ochlikni mahv etgan. Misralarda ravoch, chuchmoma, quyonto'piq, yaltirbosh, ko'kbeda, tuyatovon, sho'rao't, yeryong'oq, qo'qizamburug', sahroyi tikon kabi o'simliklarning ham ismaloq qatori xalqimizni og'ir ochlik yillaridan qutqarishda qo'l kelganligi ta'kidlanadi:

Siz – ravoch, chuchmoma, Siz – quyonto'piq,
Yaltirbosh, ko'kbeda, Siz – tuyatovon.
Sho'rao't, yeryong'oq, qo'qizamburug',
Sharbat bera olgan sahroyi tikon [12, 110].

Bandda keltirilgan serquyosh yurtimiz florasiga oid o'simliklar nomi u qadar ko'p tilga olinmaydi. O'ndan ortiq o'simlikni bilish va ularni bir she'rda jamlash shoirdan yuksak bilim va mahoratni talab qiladi.

Shoirning "Giyoh" nomli she'ri kichik hajmli – ikki banddan iborat bo'lishiga qaramay, o'zida juda chuqur falsafiy g'oyani aks ettirgan. Bunda giyoh ramziy obraz darajasiga ko'tarila olgan. Giyoh – nabotot, o't, o'lan ma'nolarida keladi. Ayrim hollarda "giyo" shakli ham uchraydi [17]. U o'zi mo'jaz, nozik bo'lsa ham yelkasida qanchadan-qancha og'ir yuklarni ko'tarishga qodir inson qiyofasini gavdalantirgan:

Ulug'vor bir qudrat bilan
Chayqaldi cho'ng dengiz.
Qancha og'ir xarsang toshlar
Tubda unga cho'kkan tiz,
Ammo mo'jaz, nozik giyoh
O'sha tubsiz o'lkada
Ko'kka o'sar, ha, dengizni
Ko'targancha yelkada! [10, 57]

She'rda ulug'vor dengiz manzarasi chizilgan. Go'yoki toshlar ham uning qudrati oldida tiz cho'kkanga o'xshaydi. E'tibor bersak, dengiz osti turli suv o'tlari, giyohlar bilan to'la. Ular ko'kka bo'y cho'zishda davom etadi. Xuddi butun dengizni ko'ksida ko'tarib turgandek. Bunday hayotiy misol shoirning o'z badiiy niyatini dalillashga qo'l kelganini ko'rish mumkin. Binobarin, she'rda giyoh va insonni parallel qo'yish orqali insondagi asl kuch-qudrat behad yuqoriligiga urg'u berilgan. Uni faqat ezgulik yo'lida sarflash kerakligi, hayot mashaqqatlarini sabr bilan yengib, faqat oldinga intilish lozimligi g'oyasi ilgari surilgan.

Yangi obrazlar, novatorona tashbehlar ijodkori Sh.Rahmonning "Qizilqumda bir kun" she'ri g'oyatda ta'sirchanligi bilan e'tiborni tortadi. Ikki tomondan Jayhundaryoni qisgan sahro, zanglagan saksovullardan yirtilgan shamol ovozi jimgilikni buzishi, olovning burgutday qumlik tepasida suzishi, kenglikni qo'msagan shoir yuragining bu qumliklarda shoqolday uvillashi tasviri beixtiyor etlarni junjiktiradi. She'rni o'qiganingiz sari shoir aytmoqchi bo'lgan fikr oydinlasha boradi. Qumga qarata aytilgan "birlashsang na bo'lg'ay" nidosi she'rda o'q chiziq vazifasini bajargan.

Tokay zanglab ketgan bu saksovullar
tirik bir imonday turadi axir –
turar Jaloliddin Manguberdining
sahroga sochilgan o'zligi kabi [14, 115].

She'rda qo'llangan asosiy obrazlardan biri – saksovul. Ularga "zanglagan" sifatining berilishida katta mohiyat yashirin. Zanglash jarayoni, aslida, bir narsaning yillar davomida bir joyda qimirlamay turishi, tozalanmasligi natijasida yuzaga keladi. Ma'lumki, bu sifat metall, temir buyumlarga nisbatan ishlatiladi. Saksovul kabi o'simliklar esa hech qachon zanglamaydi, ular bunday xususiyatga ega emas. Shoirning saksovulni "zanglatish"dan maqsadi uning qadimiyligiga ishoradir. Bu qadimiylilik ortida esa yillar davomida birlashmay kelgan, erk uchun kurashga intilmagan millat turibdi. Saksovullar ostida birlashmay, tuproqqa aylanmay kelayotgan qum zarralari buni dalillaydi. Jaloliddin Manguberdi – yurti yovdan himoya qilishga shaylangan bahodir, millat qahramoni. She'rdagi zanglagan saksovullar uning iymoni, e'tiqodi ramzi. Manguberdining sahroga sochilgan o'zligi – tarqoq millat ramzi. Shoirni xalqning loqaydligi, hurlik uchun kurashmasligi, qullikka rozi bo'lib kelayotgani qiynaydi. Sahrodagi qum zarralari, ming yillik saksovullar ham buni shoir xotiriga solaveradi. Demak, she'rda millatni birlashishga chaqiriq g'oyasi ustuvorligini ko'rishimiz mumkin.

Buxorolik shoir Shodmon Sulaymon XX asr o'zbek adabiyotida mavjud an'anadan foydalanib, qasida uslubida she'rlar bitgan. Ularda Vatan madhi, istiqlolga, bugungi kunlarimizga shukronalik ruhi yorqin ko'rinib turadi. "Jur'at maydoni" she'ri misolida fikrlarimizni asoslashga harakat qilamiz:

Buxoro – mangulik yorlig'i tekkan
Yurtlar karvoniga muqaddas mayoq.
Bunda oyat tinglab gullaydi tikan,
Bunda saksovullar yoqadi chiroq.

She'rda Buxoro madh etiladi. Shoirning qaysi janrdagi she'ri bo'lmasin, ularda ko'hna va qadimiy, ayni paytda navqiron Buxoro surati bo'y ko'rsatib turadi. Tahlil etayotganimiz she'r ham shoirning faxriyasi, yurtga muhabbatining tajassumi. Mangulik yorlig'i tekkan, yurtlar karvoniga muqaddas mayoq bu – Buxorodir. Qolaversa, Buxoro tuprog'i – muqaddas. "Buxoro quvvati islomi din ast" deyiladi. Zero, shoir "Bunda oyat tinglab gullaydi tikan" deb tashxis yaratar ekan, xuddi shunga ishora qiladi. "Bunda saksovullar yoqadi chiroq" satri ham shoirning badiiy topilmasi, deyish mumkin. Geografik nuqtai nazardan Buxoro cho'l zonasida joylashgan. Tashxis uchun qo'llangan badiiy obraz "saksovul" esa cho'l o'simligi. Mana shu jihatdan bu fikrlarda mantiqiy mutanosiblik mavjud.

Yuqorida M.Yusufning "Anjelika" she'riga to'xtalgan edik. Unda lirikada kamyob hisoblanuvchi bargizub obrazini uchratish mumkin:

Anjelika!
Otasini otishgan.
Anjelika!
Uyiga bomba tushgan.
Shunday ozg'in,
Shunday ozg'inki,
Bargizubga o'xshatish mumkin... [5, 208]

Qadimdan dorivor o'simlik sifatida ishlatiluvchi bargizubning yana bir nomi – zubturm. Abu Ali ibn Sino bargizubni qon oqishini to'xtatishda va yaralarni tuzatishda tavsiya etgan. Agar e'tibor berilsa, bargizubning barglari yapaloq ko'rinishida bo'ladi. O'rtasidan unib chiqqan asosiy poyasi esa juda ingichka. Anjelianing tanasi juda ozg'inligi bois unga tenglashtirilgan. She'rda umuminsoniy g'oyalar: insonparvarlik, mehmondo'stlik, bolajonlik xususiyatlari qadrlangan.

Yana shunday kam qo'llanuvchi obrazlarga ona tabiat mo'jizalaridan biri handalakni misol keltirish mumkin. Uning nomini eshitishimiz bilanoq, kichkina jussasi va o'ta xushbo'y ifori yodga keladi. Mirtemirning "Handalak" she'ri orqali bu iforni yaqindan tuyamiz:

Polizdan handalak hidi anqiydi,
Uhariq bo'yida sahar uyg'onsam.
Atir og'ushida olam balqiydi,
Havo eleksirday, qaniydi qonsam [4, 34].

She'rda yoz pallasining salqin sahari portreti chizilgan. Lirik qahramon shunday kunlarning birida polizga yaqin yerda tong orttiradi. Endi bu tongning tarovatini his qilishning o'zi ham bir baxt. Eleksirday toza havo, suv bo'yi, ayniqsa, polizdan taralayotgan handalakning jonbaxsh hidi dilni qitiqlaydi. Bunday manzara jannatni eslatadi. She'rda handalak obrazi ramziy mazmun-mohiyat kasb etmay, o'z ma'nosida qo'llangan. Bunda go'zal va betakror tabiatga oshnolik, maftunlik g'oyalari talqini kuzatiladi. Lirik qahramon borliq mo'jizalarining buyuk Yaratuvchisiga tahsin o'qiydi.

XULOSA

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, olamning badiiy manzarasini floristik obrazlar, xususan o'simliklar orqali badiiy aks ettirish yangi o'zbek she'riyatida nafaqat peyzaj yaratish, balki ijtimoiy fikrni berishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bunda obrazga ramziy ma'no-mazmun yuklash darajasi oshdi. Binobarin, floristik olamni anglash tarzi o'zgarganligi, uni badiiy ifodalashda o'simlik obrazlaridan ham faol foydalanish yo'lga o'tilganligi diqqatga sazovordir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бахронова Д.К. Ўзбек ва испан тилларида олам манзарасининг лингвокогнитив категорияланиши. Фил. фан. бўйича док. дисс. автореф. – Т., 2017.
2. Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2018. – 688 б.

ADABIYOTSHUNOSLIK

3. Гусейнова Г.М. Концепты «свет» и «цвет» в художественной картине мира Ю.П. Казакова. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Махачкала, 2009.
4. Миртемир. Ёдгорлик. – Т.: F.Фулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – 144 б.
5. Муҳаммад Юсуф. Сайланма: Шеърлар. Достонлар. Шоир ҳақида хотиралар. – Т.: Шарқ, 2007. – 288 б.
6. Муҳаммад Юсуф. Халқ бўл, элим. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Н.Саломова. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 208.
7. Ожерельев Константин Анатольевич. Художественная картина мира в лирике К.С.Аксакова и И.С.Аксакова. Специальность 10.01.01 – русская литература АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени. – Омск, 2014.
8. Ойбек. Созим. Шеърлар. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 64 б.
9. Omon Matjon. Maqsudam. She'rlar. – Т.: Adabiyot, 2021. – 128.
10. Орипов А. Йиллар армони. Шеърлар ва достонлар. – Т.: F.Фулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 592 б.
11. Орипов А. Танланган асарлар. IV жилдлик. I жилд. –Т.: F.Фулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 432 б.
12. Орипов А. Танланган асарлар. IV жилдлик. II жилд. –Т.: F.Фулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – 496 б.
13. Усмон Азим. Сайланма. Шеърлар. – Т.: Шарқ, 1995. – 432 б.
14. Шавкат Раҳмон. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1997. – 216.
15. Xudoyberdiyeva H. Yillar nafasi. Yangi she'rlar. – Т.: Sharq, 2016. – 128 b.
16. Ширинова Р.Х. Олам миллий манзарасининг бадиий таржимада қайта яратилиши. Докторлик (DSc) диссертацияси автореферати. – Т., 2017.
17. <https://uz.wiktionary.org/wiki/giyoh>
18. <https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBsma>

**“FarDU. ILMIY XABARLAR JURNALIDA CHOP ETILADIGAN MAQOLALARGA
QO‘YILADIGAN**

T A L A B L A R

1. Jurnal tahririyatiga taqdim etilayotgan maqolaga 1) muallif(lar) ishlayotgan muassasa rahbariyatining yo‘llanma xati; 2) ekspert xulosasi — 1 nusxada; 3) maqola yozilgan ilmiy yo‘nalish bo‘yicha tahrir hay‘atiga kiritilgan fan doktori hamda filolog mutaxassis imzolagan (imzo tegishli tartibda tasdiqlangan bo‘lishi lozim) taqriz-tavsiya ilova qilinadi.

2. Maqolalar o‘zbek, rus yoki ingliz tillarida IMRAD talablari asosida yozilgan bo‘lishi lozim.

3. Maqola qaysi tilda yozilishidan qat‘iy nazar unga uch til – o‘zbek, rus va ingliz tillarida maqola mavzusi (nomi), annotatsiya (150-200 so‘z) va kalit so‘zlar bo‘lishi lozim. Shuningdek, UDK raqami ilova qilinadi.

4. Maqola jurnal tahririyatiga “Microsoft Word” dasturida (“Times New Roman” 14 o‘lchamli shriftda, satrlar orasi bir yarim (1.5) intervalda) terilgan holda va o‘zbek tilidagi adabiyotdan foydalanilgan bo‘lsa, qavs ichida uning ingliz tiliga tarjima qilingan shaklida elektron varianti sayt (Journal.fdu.uz) orqali yuboriladi.

5. Maqolaning umumiy hajmi (rasm, jadval va diagrammalar bilan birgalikda) 8-10 sahifadan oshmasligi, shuningdek jurnalga beriladigan qisqa xabarlar hajmi 4-5 sahifadan oshmasligi talab etiladi.

6. Maqolada muallifning familiyasi, ism-sharifi, ish joyi, lavozimi, manzili (uy va xizmat telefon raqamlari, elektron pochta) ko‘rsatiladi.

7. Aniq fanlar yo‘nalishidagi maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi kerak, maqolada qisqartmalar qo‘llaniladigan bo‘lsa, ushbu qisqartma birinchi marta kelgan joyda uni to‘liq izohi qavs ichida yozilishi lozim. Formulalarni kiritishda Microsoft Wordning “Equation” dasturidan foydalanish tavsiya etiladi, ushbu dasturning imkoniyatlari yetarli bo‘lmagan holda Mathtype dasturidan foydalanish imkoniyati mavjud.

8. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda adabiyotlar ro‘yxati Amerika psixologlar hamjamiyati tomonidan taklif qilingan APA stilida bo‘lishi lozim.

9. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e‘tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.

10. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.

11. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.